

MULTIMEDIA VOSITALARI ORQALI O‘QUVCHILARDA ILMIY VA BADIY MATN USTIDA ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Faxritdinova Shoiri Boli qizi

Oriental universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy va badiiy matn ustida ishlash ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, didaktik asoslari hamda metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta‘lim tizimini raqamlashtirish sharoitida multimedia vositalarining o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matnni anglash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan. Ilmiy va badiiy matnlarning mazmun hamda uslubiy xususiyatlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilinib, ularni o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: multimedia vositalari, boshlang‘ich ta‘lim, ilmiy matn, badiiy matn, matn ustida ishlash, o‘qish savodxonligi, raqamli ta‘lim, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta‘lim sifati, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические возможности, дидактические основы и методические подходы к формированию у учащихся начальных классов навыков работы с научными и художественными текстами на основе мультимедийных средств. В условиях цифровизации системы образования научно обоснована роль мультимедийных технологий в развитии читательской грамотности учащихся, понимания текста, навыков анализа, сравнения, обобщения, формулирования выводов и творческого мышления. Проведен сравнительный анализ содержательных и стилевых особенностей научных и художественных текстов, а также раскрыты преимущества использования современных информационно-коммуникационных технологий в процессе их обучения.

Ключевые слова: мультимедийные средства, начальное образование, научный текст, художественный текст, работа с текстом, читательская грамотность, цифровое образование, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, качество образования, критическое мышление, творческое мышление, педагогические технологии.

Abstract. This article analyzes the pedagogical opportunities, didactic foundations, and methodological approaches to developing primary school students' skills in working with scientific and literary texts through multimedia tools. In the context of the digitalization of the education system, the role of multimedia

technologies in enhancing students' reading literacy, text comprehension, analysis, comparison, generalization, drawing conclusions, and creative thinking competencies is scientifically substantiated. The content and stylistic characteristics of scientific and literary texts are comparatively analyzed, and the advantages of using modern information and communication technologies in teaching these types of texts are highlighted.

Keywords: multimedia tools, primary education, scientific text, literary text, text analysis, reading literacy, digital education, interactive methods, information and communication technologies, quality of education, critical thinking, creative thinking, pedagogical technologies.

KIRISH. Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida kechayotgan tub islohotlar ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, o'quvchilarning XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalari ta'limning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, o'qitishning mazmuni, shakli va metodlariga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun poydevor yaratadi. Shu bois ushbu bosqichda o'qish savodxonligini rivojlantirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi, xulosa chiqarishi va ijodiy yondashuvini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirishda ilmiy va badiiy matnlar bilan ishlash muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi pedagogika va metodika fanida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy pedagog olim Richard Mayer tomonidan ishlab chiqilgan multimediali o'qitish nazariyasi multimedia vositalaridan samarali foydalanishning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Olimning ta'kidlashicha, o'quv materialini matn, tasvir, audio va animatsiya kabi bir-birini to'ldiruvchi elementlar uyg'unligida taqdim etilganda o'quvchilarning axborotni qabul qilishi, qayta ishlashi va uzoq muddatli xotirada saqlashi samaraliroq kechadi.¹ Mayerning fikricha, multimedia vositalari o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirib, murakkab tushunchalarni osonroq anglash va mazmunni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi keng o'rganilgan. Xususan, M.X. To'xtaxodjayeva, R.J. Ishmuhammedov, G'ulomov va boshqa tadqiqotchilar² o'z

¹R.E.Mayer Multimedia Learning. Cambridge University Press. 2009.

² Rahimjonova, M. Badiiy matn asosida muloqot va tafakkurni rivojlantirish. –Nukus: Qoraqalpoq universiteti nashriyoti, 2020. Abdullaeva, G. O'zbek tili darslarida matn bilan ishlash metodikasi. –Buxoro: BDU, 2018. G'ulomov, A. Ona tili darslarini o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017

ishlarida o'quvchilarning mustaqil o'qish faoliyatini tashkil etish, matn ustida ishlash metodlarini takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalalarini yoritganlar.³

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida multimedia vositalari orqali ilmiy va badiiy matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini baholashga qaratildi. Tadqiqot davomida nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil metodlari qo'llanildi. Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnomalar, diagnostik topshiriqlar, pedagogik tajriba-sinov hamda o'quvchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy va badiiy matn ustida ishlash ko'nikmalarini multimedia vositalari orqali shakllantirishga qaratilgan metodika tajriba-sinovdan o'tkazildi. Tadqiqotda tajriba guruhi 56 nafar, nazorat guruhi esa 66 nafar o'quvchini qamrab oldi. Tajriba-sinov ishlari davomida elektron taqdimotlar, videomateriallar, animatsiyalar, interfaol topshiriqlar va boshqa multimedia vositalaridan foydalanildi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida "Venn diagrammasi", "Sinkveyn", "Baliq skeleti", "Konseptual jadval", muammoli vaziyatlar, loyiha metodi, rolli o'yinlar kabi interfaol metod va usullardan foydalanildi. Masalan, 4-sinf o'qish savodxonligi darsligida berilgan "Suvda xotira bor" ilmiy matnini quydagi usullar yordamida o'rgatilganda, matn bilan ishlash darajasi ancha oshganligini ko'rish mumkin.

4-SINF – O'QISH DARSLIGI
SUVDA XOTIRA BOR

Suv – hayot manbai. U tabiatni, insonni, barcha mavjudotni asraydi.
Suv nafaqat moddiy, balki axborotni ham o'zida saqlashi mumkin,
degan fikrlar mavjud. Bu mavzu ustida turli topshiriqlarni bajaramiz.

1. VENN DIAGRAMMASI

Ko'rsatmaga muvofiq ilmiy matn va badiiy matn taqqoslang va o'xshash hamda farqli jihatlarni yozing.

ILMIY MATN	O'XSHASH JIHAHLARI	BADIIY MATN
1. _____	1. _____	1. _____
2. _____	2. _____	2. _____
3. _____	3. _____	3. _____
4. _____	4. _____	4. _____

2. SINKVEYN

"Suv" so'zi haqida sinkveyn tuzing.

1-qator (Suv – 1 so'z)

2-qator (Suv qanday? – 2 so'z)

3-qator (Suv nima qiladi? – 3 so'z)

4-qator (Suv haqida fikr – 4 so'z)

5-qator (Suv – sinonim, 1 so'z)

3. BALIQ SKELETI (FISHBONE)

"Suvda xotira bor" mavzusidagi muammoni sabab va oqibatlar bilan tahlil qiling.

Sabablar

Suvda xotira bor

Oqibatlar

4. KONSEPTUAL JADVAL

Jadvalni to'ldirib, bilimlaringizni tizimlashtiring.

Tushuncha	Nimani bildim?	Qanday bilaman?	Nima uchun muhim?
Suv			
Xotira			
Suvda xotira bor			
Inson hayotida suvning o'rnini			

5. MUAMMOLI VAZİYAT

Quyidagi muammo ustida o'ylang va yechim taklif qiling.

Agar suv barcha narsani eslab qolsa, insonlar unga qanday so'zlar va fikrlarni aytishlari kerak?

Mening yechimim: _____

6. LOYIHA METODI

"Biz suvni asraymiz" nomli mini-loyiha tayyorlang.

Loyiha rejasini:

- Loyiha maqsadi _____
- Axborot manbalari _____
- Asosiy g'oya _____
- Amalga oshirish bosqichlari _____
- Kutilayotgan natija _____

7. ROLLI O'YIN

Rollarga bo'ling va sahna ko'rinishini tayyorlang.

Men – olim. Suv xotirasi haqida uylanish olib boryapman.

Men – suv. Men hamma narsani eslab qolaman.

Men – tabiat himoyachisi. Suvni asraymiz kerak!

Men – jurnalist. Suv haqida intervyu olmoqchiman.

Olim Suv Tabiat himoyachisi Jurnalist

QO'SHIMCHA TOPSHIRIQ

"Suvda xotira bor" mavzusi bo'yicha 5 ta savol tuzing va sinfdoshlaringizga bering.

1. _____ 2. _____ 3. _____ 4. _____ 5. _____

Suvga e'zgu so'z aytyaylik, suvni asraylik, kelajakni asraylik!

³ Ishmuhammedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

Bundan tashqari bu matn yuzasidan HTML o'yin ko'rinishida turli topshiriqlar yaratildi va foydalanuvchilarga qulay bo'lishi uchun QR kod ko'rinishi ham ishlab chiqildi.



suv_xotira_oyinlar.html



Olingan natijalar multimedia vositalaridan maqsadli va metodik jihatdan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning matn mazmunini anglash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilarning faolligi, o'quv motivatsiyasi va mustaqil ishlashga qiziqishi ortgani kuzatildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalari faqat axborotni taqdim etish vositasi emas, balki o'quvchilarning kognitiv faolligini kuchaytiruvchi, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi samarali didaktik vosita hisoblanadi. Mazkur metodik yondashuv boshlang'ich ta'limda ilmiy va badiiy matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Ilmiy-dissertatsion adabiyotlar va real ijtimoiy jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qish darslarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni samarali o'zlashtirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan keng va samarali foydalanish pedagogik faoliyatning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

TAVSIYALAR. Tadqiqot natijalari hamda ilmiy-pedagogik dissertatsiyalar xulosalariga tayangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy va badiiy matn ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Dars jarayonida multimedia vositalaridan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadli va tizimli foydalanish.

2. Ilmiy va badiiy matnlarni o'qitishda matn, tasvir, audio, video va animatsiya elementlarini o'zaro uyg'unlashtirish.

3. Matn ustida ishlash jarayonida interfaol metodlar va raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

4. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining multimedia vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini muntazam oshirib boorish.

5. Ilmiy va badiiy matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan zamonaviy elektron ta'lim resurslari va multimedia didaktik materiallarini yaratish hamda amaliyotga keng joriy etish.

6. O'quvchilarning matnni anglash va tahlil qilish ko'nikmalarini muntazam tahlil qilish hamda natijalarga ko'ra individual yondashuvni qo'llash.

Ushbu tavsiyalarni ta'lim amaliyotiga joriy etish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini, ilmiy va badiiy matnlarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga, shuningdek, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahimjonova, M. Badiiy matn asosida muloqot va tafakkurni rivojlantirish. –Nukus: Qoraqalpoq universiteti nashriyoti, 2020.

2. Abdullaeva, G. O'zbek tili darslarida matn bilan ishlash metodikasi. –Buxoro: BDU, 20181.

3. Gulomov, A. Ona tili darslarini o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017

4. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019

5. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2009. – 45-bet.

6. R.E. Mayer Multimedia Learning. Cambridge University Press. 2009.

7. M.E. Toirova 4-sinf o'qish savodxonligi darsligi 3-qism 31-bet.

8. Karimova Sh. Ona tili. Darslik, I qism. Toshkent, 2024